

## **TEXNOLOGIK TUSDAGI FAVQULOTDAGI VAZIYATLAR**

**Xamdamova Ruxshona Muzaffarjon qizi**  
**Andijon Davlat Universiteti talabasi**

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda texnogen tUSDagi favqulotda vaziyatlar, ularning tavsifi va tasnifi. Texnogen tUSDagi favqulotda vaziyatlarning kelib chiqish sabablari. Aholi va hududni favqulotda vaziyatlardan muhofaza qilish haqida qisqacha ma’lumot beriladi.

**Kalit so’zlar:** Avariya, portlash, energetik xalokat, komunal tizim xalokati, gidrotexnik xalokat, ijtimoiy xalokat, kimyoviy xalokat, radiaktiv xalokat.

**Abstract:** In this thesis man-made emergencies, their description and classification. Causes of man-made emergency situations. Brief information about the protection of the population and the territory from emergency situations will be given.

**Key words:** Accident, explosion, energy disaster, communal system disaster, hydrotechnical disaster, social disaster, chemical disaster, radioactive disaster.

**Аннотация:** В данной дипломной работе чрезвычайные ситуации техногенного характера, их описание и классификация. Причины возникновения чрезвычайных ситуаций техногенного характера. Будет дана краткая информация о защите населения и территории от чрезвычайных ситуаций.

**Ключевые слова:** Авария, взрыв, энергетическая катастрофа, катастрофа в коммунальном хозяйстве, гидротехническая катастрофа, социальная катастрофа, химическая катастрофа, радиационная катастрофа.

Ma'lumki, favqulotda vaziyat (FV) – bu muayyan xududda o’zidan so’ng odamlarning qurbon bo’lishi, odamlar sog’ligi yoki atrof-muhitga ziyon yetkazishi, kishilarning hayot faoliyatiga kattagina moddiy zarar hamda uning buzilishiga olib kelishi mumkin bo’lgan yoki olib kelgan halokat, stixiyali falokat, epidemiyalar, epizootiyalar natijasida yuzaga kelgan holatdir.

Texnogen tUSDagi FVlar – bu odamning ishlab chiqarish yoki xo’jalik faoliyati bilan bog’liq bo’lgan halokat (avariya)lar.

Vazirlar Mahkamasining 455-sonli qarorining ilovasiga ko’ra texnogen tUSDagi FVlar vujudga kelish sabablariga qarab quyidagi FVlarga tasnif qilinadi:

- transport halokatlari (avariyalari);
- kimyoviy havfli ob'ektlardagi halokatlar;
- yong’in-portlash havfi mavjud bo’lgan ob'ektlardagi halokatlar;
- energetika va kommunal tizimlardagi halokatlar;
- ijtimoiy yo’nalishdagi ob'ektlardagi hodisa va halokatlar;
- gidrotexnik halokatlar.

Texnogen tUSDagi halokatlarning asosiy sabablari quyidagi-lardan iborat:

- inshootlarni loyihalashda yo’l qo’yilgan kamchiliklar;
- texnika xavfsizligiga rioya qilmaslik;
- ishlab chiqarishda doimiy nazoratning susayishi va ayniqsa, yengil alanga oluvchi, yong’inga xavfli moddalardan foydalanishda e’tiborsizlik;
- ishlab chiqarish texnologiyasida yo’l qo’yilgan xatolik, jihozlarni, mashina va mexanizmlarni o’z vaqtida ta’mirlamaslik;
- mehnat va ishlab chiqarish intizomining pastligi;

- qo’shni ishlab chiqarish korxonalarida yoki energetika, gaz tarmoqlarida yuz bergan halokat;

- halokatlarni keltirib chiqaruvchi tabiiy favqulodda hodisalar.

Texnogen favqulodda vaziyatlar natijasida insonlar qurbon bo’lishi, turli darajada shikastlanishi, atrof-tabiiy muhitning, atmosfera havosining turli zaharli moddalar bilan ifloslanishi, o’simliklar dunyosi, hayvonot olami nobud bo’lishi, juda katta moddiy zarar ko’rishga olib kelishi kabi oqibatlari kuzatiladi.

Respublikamizda aholi va hududni texnogen FVlardan muhofaza qilish uchun bir qator ishlar qilinmoqda. Shu jumladan, 1995 yil 20 avgustda «Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to’grisida»gi qonun qabul kilinganligini ta’kidlab o’tish lozim.

Bundan tashqari Respublikamiz miqyosida o’tkazilayotgan «Yong’in xavfsizligi oyli», «Yo’l harakati havfsizligi oyli» kabi tadbirlar ham texnogen favqulodda vaziyatlarning oldini olish, aholi va hududlar xavfsizligini ta’minlash, favqulodda vaziyat yuz berganda harakatlanishga oid tayyorgarlik darajalarini oshirishda katta ahamiyatga ega.

#### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro’yxati:**

1.Yormatov G’.YO. va boshqalar. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: “Aloqachi”, 2009 yil. – 348 b.

2.Yormatov G’. YO. va boshqalar. Hayot faoliyati xavfsizligi. O’quv qo’llanma. -T.: 2005.

3. I. Tojiev, M. X.Nigmatov "Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi" Darslik.-T.: Iqtisod-moliya. 2011. -260 b.

4. M. X. Nigmatov I.Tojiev, Ilxomov «Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi» O’quv qo’llanma. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2005. -195 b.

5.H.E.G’oyipov Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: “Yangi asr avlodi”,